
Ramazon - mehr-saxovat oyi: Farg'ona shahridagi mahallalarda iftorlik dasturxonlari yozilmoqda

Muborak Ramazon oyi munosabati bugun 1-sektor hududidagi "Guliston" mahalla fuqarolar yig'ini hamda 2-sektor hududidagi "Otalar choyxonasi"da iftorlik dasturxonlari yozildi.

Tadbirda mahalla faollari bugungi kunda inson qadrini ulug'lash, fuqarolar manfaatlarini himoya qilish maqsadida respublikamiz hududlarida, shu jumladan shahrimizda olib borilayotgan ishlar barchani birdek mamnun etayotganligini ta'kidladilar. Shuningdek, mazkur hududlarda so'nggi yillarda olib borilayotgan qurilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari ko'lami ortib borayotganligi, bu borada kelgusida ham bajarilishi rejalashtirilgan ishlar haqida ham ma'lumotlar berildi.

Iftorlikda ishtirok etgan ro'zador nuroniylarimiz yurtimizga tinchlik-osoyishtalik, dehqonlarimiz hosiliga baraka, bunyodkorlik ishlariga rivoj tilab, duoga qo'l ochishdi.

Bu kabi iftorliklar mahallalar hamda xonadonlarda davom etmoqda.

2023-03-29 08:35:38